


“TASDIQLAYMAN”  
“Adolat” milliy huquqiy  
axborot markazi direktori  
 F. Tojiyev  
2022-yil “\_\_\_”

**TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ**  
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot  
portaliga e'lon joylashtirish to'g'risida)

2022-yil 2-avgust

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (rus tilida) va O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini nashr etish masalasini ko'rib chiqish va e'lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot  
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari  
va hujjalari bo'yicha e'lon matni**

**Tanlovga qo'yilayotgan xizmat turi:**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (rus tilida) va O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini kirill yozuvida chop etish.

**Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:**

1. Nashr etish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;
2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo'lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o'z texnik bazasiga ega bo'lish;
3. Belgilangan vazifalarni g'olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan mahsulot (kodeks)larni 5 (besh) ish kuni davomida to'liq tayyorlab “Buyurtmachi”ga topshirish;
4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik xususida ariza taqdim etish;
5. Tanlovda g'olib chiqqan tashkilot (korxona) bilan Markaz o'rtaida rasmiylashtirilgan shartnomada ko'zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;
6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xusan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot, uning moliyaviy holati haqida ma'lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval).

**Nashr etiladigan mahsulotning umumiyligi tavsifi:**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (rus tilida) va O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining formati: 60x100, 1/16, qattiq muqova, buvinil, ichki sahifa oq qora, 70 gr offset qog'ozni tashkil etadi.

Nº	Mahsulot nomi	Adadi (dona)	Hajmi	Bir dona narx (QQS bilan)
1.	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (rus tilida)	500	648 bet	128 000
2.	O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi	500	624 bet	125 000

**Buyurtmachi nomi:** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

**Buyurtmachi mansabdar shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami:**  
direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.  
**STIR:** 201 453 166, 71 233-28-18

**Tanlov taklifini rasmiy lashtirish shakli:** elektron talablar asosida.

**Buyurtmani bajarish muddati:** nashrning elektron maketi berilgach  
5 (besh) kun.

**Tanlov o'tkazish manzili:** Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur  
shohko'chasi, 19-uy.

**Boshlanish muddati:** 02.08.2022-yil

**Tugallanish muddati:** 08.08.2022-yil

**Takliflarni topshirishning oxirgi muddati:** 2022-yil 8-avgust.

**Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:**

Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan  
e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

- Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq  
boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;
- Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov  
g'olib aniqlanadi.

**Marketing, reklama  
va obuna bo'limi boshlig'i**

F. Kuldashev

**Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i**

M. Yerdashev

**Mehnatni muhofaza qilish  
va xo'jalik ishlari mudiri**

A. Tursunov

**Rasmiy nashlarni va yuridik adabiyotlarni  
tayyorlash va tahrir qilish bo'limi boshlig'i**

Sh. Abdullayev

02.08.2022-yil